



Biosferada kechadigon jarayonlar

Andijon davlat Pedagogika institeti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2-bosqich 203-guruh talabalarini

**Yo‘ldasheva Gavharoy Sanjarbek qizi
Shokirova Mohizodabegim Doniyorbek qizi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada yerda hayotni paydo bo‘lish nazari-yalari.
Biosferada mavjud bo‘lgan moddalarni to‘rtta asosiy guruhlari ularning ahamiyati
va noosfera haqida axborotlar keltirilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Biosfera (hayot qobig‘i), tirik, biogenva noorganik mod-dalar
va suv, biokos yoki oraliq modda, noosfera.

Abstract: In this article, the theories of the origin of life on earth. Four main
groups of substances present in the biosphere, their importance and information
about the noosphere are presented.

Key words: Biosphere (life shell), living, biogenic and inorganic substances
and water, biocos or intermediate substance, noosphere.

Аннотация: В данной статье рассмотрены теории происхождения
жизни на Земле. Представлены четыре основные группы веществ,
присутствующих в биосфере, их значение и сведения о ноосфере.

Ключевые слова: Биосфера (жизненная оболочка), живые, биогенные
и неорганические вещества и вода, биокос или промежуточное вещество,
ноосфера.

Mavjud ilmiy manbalarga ko‘ra, yer sayyorasida hayotning paydo bo‘-lish
tarixi 3,5-3,8 milliard yilga teng deb hisoblanadi. Hayotning vujudga kelishi haqida
bir necha nazariyalar mavjud. Ulardan birida ta’riflanishi-cha, hayot dastlab
tiriklikning ba’zi xususiyatlarini o‘zida mujassam-lashtirgan organik birikmalar
shaklidan boshlanib, to hozirgi ongli odamgacha bo‘lgan uzoq evalutsion davrni
boshidan kechirgan. Tirik organizmlar bu uzoq taraqqiyot davrida yuqori
moslashuvchanlik xu-susiyati tufayli yerdagi turli hayot muhitlarini o‘zlashtirdilar.

Yerda hayotni paydo bo‘lishi, takomillashuvi va ko‘plab hududlari egal-lay
boshlashi bilan tirik organizmlar sayyorada kechadigon jarayonlarda o‘ziga xos
o‘rinni egallay boshlaganlar. Hayotni doimiy ta’siriga duchor bo‘lgan yerning yuza
qatlamlarida, ya’ni atmosferaning 20-25 km ba-landligigacha yoki

aerobiosferagacha, suv zaminlarining 0,5 km chu-qurligigacha alohida o‘ziga xos xususiyatlari bilan farqlanuvchi "jonli qobiq" shakllangan. Mana shu jonli qobiqni biosfera yoki hayot qobig‘i deb ataladi. Bu qobig‘ni yerning alohida qobig‘i sifatida o‘rganishni dastlab 1875-yilda avstriyalik geolog E. Zyuss taklif etgan bo‘lsa-da biosfera haqidagi ta’limotning asoschisi taniqli rus olimi V.I. Vernadskiy hisoblanadi. U tirik organizmlar funksiyasini chuqur tahlil etish asosida "ular qudratli geokimyoviy kuchga ega, yerning yuza qobiqlaridagi ta-biiy jarayonlarda ularning faoliyati g‘oyat muhim omil hisoblanadi. Shu-ning uchun yer qobiqlarining ular ta’sirida bo‘ladigon qismlarini alohida qobiq deb qarab mustaqil o‘rganish zarur", degan fikrga keladi.

Biosfera deyilganda yerning hayot tarqalgan yuza qismi tushuniladi. U o‘z ichiga barcha tirik organizmlarni va ular tarqalgan joydagi noor-ganik moddalarni qamrab oladi. Hozirgi paytda yerdagi tirik organizm-larning yillik o‘rtacha o‘sishi $2,23 \times 10^{11}$ tonnani tashkil etadi. Agar so‘n-gi milliard yil uchun bu miqdorni hisoblasak, yer qobig‘ining massasiga nisbatan 10 marta ko‘p biomassa hosil bo‘lganligini ko‘rish mumkin.

Biosferadagi mavjud moddalari quyidagi to‘rtda guruhgaga ajratish mumkin:

1.Tirik moddalalar. Bularga biosferadagi barcha tirik organizmlar (o‘simliklar,hayvonot va quyi darajadagi jonzotlar) kiradi. Tirik mod-dalarning eng muhim xususiyatlari ularni umumiyl vazni, kimyoviy tar-kibi va energiyasi hisoblanadi.

2.Biogen moddalalar. Bular tirik organizmlar faoliyati natijasida hosil bo‘lgan va o‘zgarishlarga uchragan moddalardir. Neft, torf, ko‘mir, ohaktosh, tabiiy gaz va shu kabilar biogen moddalarga misol bo‘ladi.

3. Noorganik moddalalar va suv. Bular biosferadagi turli noorganik moddalalar va suvlarni o‘z ichiga oladi. Bunday moddalalar tirik organizm-lar uchun yashash muhiti va vositasi hisoblanadi.

4.Biokos yoki oraliq modda. Tirik organizmlarning faoliyati ta’sirida o‘zgarishga uchragan moddalardir. Bularga tuproqlar, cho‘kindilar, tog‘ jinslari va suvlarni ma’lum qismini misol qilib ko‘rsatish mumkin. Tirik moddalalar energetik jihatdan o‘lik moddalarga nisbatan bir necha baro-bar faol bo‘ladilar,ya’ni ularda energiyaning to‘planishi va sarf bo‘lishi nisbatan tez kechadi.

V.I Vernadskiy insonning biogeokimyoviy faoliyatini ham tirik mod-dalarning alohida funksiyasi sifatida ajratishni tavsiya etgan. Bu fikrning ilmiy ahamiyati

hozirgi insoniyatning ishlab chiqarish faoliyati kuchay-gan davrda yana yaqqolroq namoyon bo‘lmoqda.

Noosfera grekchada noos-aql, ong, spaira-sferik qobiq demakdir. Noosfera jamiyat va atrof-muhitning o‘zaro ta’sirlashuv makonidir. Boshqacha qilib aytganda, noosfera-bu fikrlovchi qobiq yoki insonning ongli faoliyati ta’sirida jamiyat va tabiatning evalutsion rivojining asosiy harakatga keltiruvchi kuchi yoki omilidir. Bu omil avval yerda so‘ngra yer atrofidagi kosmik bo‘shliqda ham yetakchi o‘rin tuta boshladi. Noo-sfera atamasini dastlab fransuz filosofi E. Lerua tamonidan qo‘llanilgan. Uning tushinishicha noosfera biosferaning oliv "ma’naviy" bosqichi hi-soblanadi. Boshqa bir fransuz katolig filosofi P.Teyyar De Sharden esa noosferani biosferaning ustki fikrlovchi qatlami deb tushingan.

Rus olimi V.I Vernadskiy o‘zining biogeokimiyoviy tadqiqotlariga asoslanib, "Insonning xo‘jalik va ishlab chiqarish faoliyati tufayli tabiat kuchli o‘zgarishga uchraydi, bu jarayon da inson bosh o‘zgartiruvchi kuchga aylanadi va u biologik evalutsiyaning yo‘nalishini belgilovchi bo‘lib qo‘ladi. Inson bilan biosfera o‘rtasidagi o‘zaro munosabat umumsayyora-viy harakter kasb etadi. Inson faoliyati tufayli tabiatda modda va ener-giya aylanishini yangi turi, ya’ni antropogen modda almashinuvi qaror topadi. Buning natijasida biogeosenoz jarayoni noogeosenozga o‘tadi. Oqibatda biosfera o‘zining sifat jihatdan yangi bosqichi noosferaga o‘tadi", degan ilmiy asoslangan xulosalarga keladi. So‘ngi 30-40 yil ichida noosfera haqida fikrlar dunyo bo‘ylab keng tan olindi.

Xulosa: Biosfera deyilganda yerning hayot tarqalgan yuza qismi tushuniladi. Yer sayyorasida hayotning paydo bo‘lish tarixi 3,5-3,8 mil-liard yilga teng. Noosfera oqilona tarzda tuzilgan tabiat va jamiyatdan iborat biosferaning kelajakdagi yangi holatidir, ya’ni taraqqiyotning noosfera bosqichida tabiat bilan jamiyat bir butun yaxlit tizim tarzida faoliyat ko‘rsata boshlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. "Ekoliya va atrof-muhitning muhofaza qilish asoslari", "Musiqa" nashriyoti. P. S. Sultonov. Toshkent 2007 y.
2. "Ekoliya o‘quv qo‘llanma", To‘xtayev A. S. Toshkent 1998 y.
3. "Umumiyl ekoliya" darslik, A. Ergashev. Toshkent 2003y.
4. "Ekoliya va tabiatni muhofaza qilish o‘quv qo‘llanma", Xo‘janazarov. O‘. E. Yoqubjonov. SH. Toshkent 2018 y.